

ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA INDONEZIYA TAJRIBASINI QO'LLASH: SALOHİYAT VA ISTIQBOLLAR

Astanakulov Olim Tashtemirovich,

*DSc, prof., O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
"Islom iqtisodiyoti va moliyasi" kafedrasini mudiri
Toshkent, O'zbekiston. E-mail: astanakulov@gmail.com
ORCID: 0000-0002-0536-1214*

Soxibova Muslimaxon Xolmatjon qizi,

*Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti, doktorant
Toshkent, O'zbekiston. E-mail: zaynutdinovamuslimaxon@gmail.com
ORCID: 0009-0003-6868-1770*

INDONESIAN EXPERIENCE IN ZIYARAH TOURISM DEVELOPMENT: POTENTIAL AND PROSPECTS

Olim Astanakulov,

*DSc., Professor, International Islamic Academy of Uzbekistan
Head of "Islamic Economics and Finance" Department
Tashkent, Uzbekistan. Email: astanakulov@gmail.com
ORCID: 0000-0002-0536-1214*

Sokhibova Muslimaxon,

*PhD student, Tourism Development Institute
Tashkent, Uzbekistan., E-mail: zaynutdinovamuslimaxon@gmail.com
ORCID: 0009-0003-6868-1770*

JEL Classification: L8, L83

Annotatsiya. Bugungi kunda turizm jahon iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Turlarni tashkil etish va amalga oshirishda sayyohlarning xohish-istaklari va motivlari asosiy rol o'ynaydi. So'nggi yillarda turistlarning diniy va ma'naviy ehtiyojlari ustiga qurilgan motivlar asosida turlarni amalga oshirish tendensiyasi o'sib bordi. Shunday bo'lsa-da, diniy (ziyorat, islomiy, halol) turizm turlarni ichida eng kam tadqiq qilingan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ziyorat turizmi segmentidagi izchil o'sish turizm bozorida global tendensiyaga aylandi. Insonlarning e'tiqodi turizmning taraqqiyotida

muhim ahamiyat kasb etadi va odamlar qay tarzda vaqt o'tqizishi lozimligini belgilab beradi. O'zbekistonda turizm sektori, xususan, ziyorat turizmini rivojlantirish doirasida olib borilayotgan islohotlar kengayib bormoqda. Shuning uchun, mehmondo'stlik sanoatida xorijiy mamlakatlarining tajribasini o'rganish va tadbqiq qilish muhim ahamiyatga ega. Halol turizm jahon iqtisodiyotining bir qismi sifatida Indoneziyadagi turizm bozorida rivojlanib bormoqda. Ushbu maqolada halol turni sotib olayotgan turistlar uchun Indoneziya tomonidan taqdim qilingan yo'nalishlar, ziyorat turizmida Indoneziya tajribasi va uni

mamlakatimizga joriy qilish masalalari yoritilgan.

Abstract. *Tourism plays an important role in the international economy. The motives of tourists play a key role in the organization and implementation of tours. Recently, there has been a growing tendency to organize tours based on motives based on tourists' religious and spiritual needs. Nevertheless, religious (pilgrimage, Islamic, halal) tourism is one of the least researched types of tourism. Consistent growth in the pilgrimage tourism segment has become a global trend in the tourism market. People's beliefs play a key role in tourism development and determine how people should spend their time. The reforms carried out within the framework of developing the tourism sector are expanding in Uzbekistan. Therefore, it is important to study and apply the experience of foreign countries in the hospitality industry. Halal tourism is developing in the Indonesian tourism market as part of the global economy. This article describes the directions Indonesia offers for tourists buying halal tours, the Indonesian experience in pilgrimage tourism, and its implementation in our country.*

Kalit so'zlar: *turizm, ziyorat turizmi, islomiy turizm, xizmat ko'rsatish, turistik bozor, sayyoh, ziyoratgoh.*

Keywords: *tourism, pilgrimage tourism, Islamic tourism, service, tourist market, tourist, pilgrimage.*

Kirish. Turizm so'nggi yigirma yil ichida jahon iqtisodiyotining yetakchi va eng katta daromad keltiruvchi sektoriga aylandi. U nafaqat mamlakat, balki mintaqalarning iqtisodiy salohiyatini oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi. Mehmondo'stlik sanoati qisqa muddat ichida yuqori daromad keltira olganligi sababli iqtisodiyotning boshqa sektorlariga nisbatan

ancha tez sur'atlarda o'sayotganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin[1].

O'zbekistonda turizmning istiqbolli: ziyorat, tarixiy-madaniy, rekreatsion, ta'lim, gastronomik yo'nalishlarini tashkil etish va rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda[4]. Shuning uchun, yo'nalishlarda sayyohlar sonini oshirish, shu orqali turizmdan tushgan tushumni ko'paytirish, sektorda yangi ishchi o'rinlar yaratish, mavjud turistik resurslarni samarali boshqarish muhim ahamiyatga ega. 2023-yilda qabul qilingan "O'zbekiston – 2030" strategiyasi 58-bandida mamlakatimizda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyohlar sonini oshirish masalasi va mazkur masala doirasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar belgilab qo'yilgan. Ulardan biri esa ziyorat turizmi bo'yicha keladigan turistlar sonini 3 million nafarga oshirishdan iborat [15].

Turizmning istiqbolli yo'nalishlarini mamlakatning barcha hududlarida keng yo'lga qo'yish, sektorni modernizatsiyalash, turizm markazlarida infratuzilmani takomillashtirish, xizmatlar sifatini oshirish va diversifikatsiya qilish mamlakatning turistik destinatsiya sifatida xalqaro turizm bozoridagi o'rnini mustahkamlaydi [5]. Shu sababli, ushbu sektorni yanada chuqurroq tadqiq etish, xorijiy mamlakatlarning tajribasini o'rganish va tadbiriq etish imkoniyatlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Material va metod. Tadqiqot jarayonida kuzatish, qiyoslash, tizimli va qiyosiy tahlil, statistik guruhlash kabi usullar qo'llanildi. Jumladan, o'ndan ortiq milliy va xorijiy adabiyotlarda mazkur mavzuga doir tadqiqotlar o'rganib chiqildi va tahlil etildi. Mavzuga doir bugungi kundagi tendensiya baholandi. Statistik ma'lumotlar tahlili amalga oshirildi.

Ziyorat turizmi tushunchasining turli nazariy va amaliy jihatlari xorijlik va mahalliy

iqtisodchi olimlar, turli ekspertlar ilmiy ishlari hamda hisobot ma'ruzalarida muhim tadqiqot predmeti sifatida tadqiq etilgan.

M.Battour, M.N.Ismail "Halol turizm: konsepsiya, amaliyot, muammo va istiqbollari" [7], Z.Samori, N.Salleh, M.M.Khalid "Halol turizm joriy tendensiyalar"[10] ilmiy ishlarida ziyoratning islom dinidagi mohiyati va amalga oshirilish qonuniyatini yoritgan. J.Junaidi "Halol turizm va unga ta'sir etuvchi omillar"[9] **Ошибка! Источник ссылки не найден.** ilmiy maqolasida halol turizmga ta'sir etuvchi omillar va ularning tasnifiga urg'u bergan.

A.Yu.Aleksandrova "Halol turizm: mohiyati, omillari va zamonaviy rivojlanish tendensiyasi" [2], M.V.Umanskaya, Z.I.Davlatova "Zamonaviy dunyoda halol turizmi" [12] ilmiy maqolalarida halol turizm va undagi asosiy tushunchalarga ta'rif berganlar.


O'zbek tadqiqotchilaridan A.Asadov "Musulmon bo'lmagan mamlakatlarda halol turizm standartlarini joriy etish tajribasi"[3], U.Barotov "Halol turizm joriy yetakchi online turistik agentliklar faoliyati tahlili va ularning yurtimizdagi istiqboli"[6], U.Turdiyeva "Halol mahsulot va xizmatlarni baholashning turizm sanoatiga ta'siri"[11] kabi mavzularda tadqiqotlar olib borishgan.

Ilmiy adabiyotlarning ko'pligiga qaramasdan, ularning aksariyat qismi terminologiya va geografik asoslarga qaratilgan bo'lib, masalaning iqtisodiy jihatiga yetarlicha urg'u berilmagan. Ta'kidlash joizki, bugungi kunda xalqaro turistik xizmatlar dinamikasi tahlili va turizm industriyasini rivojlantirish, turizm sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari va jozibador

muhitni shakllantirish masalalari iqtisodchi olimlar o'rtasida qisman bayon etilgan. Fikrimizcha, ziyorat turizmi xizmatlarning jahon tajribasini tahlil va tadbiiq qilish, sohada amalga oshiriilayotgan davlat siyosati samaradorligiga e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega.

Natijalar. Indoneziya Osiyoning janubiy-sharqiy qismida joylashgan, hududi jihatidan dunyodagi eng katta mamlakatlar qatorida 14-o'rinni egallaydi. 2024-yilda holisi soni 279,7 milliondan oshdi, aholi soni bo'yicha dunyoning top-10 mamlakatlar qatoriga kiradi [16].

Turizm Indoneziyaning muhim iqtisodiy sektorlaridan biri bo'lib, mamlakat iqtisodiyotining asosiy daromad manbai sanaladi. 2010-2019-yillar kesimida Indoneziyaga tashrif buyurgan turistlar soni o'sib borgan. 2010-yilda tashrif buyurgan sayyohlar soni 7 milliondan oshgan bo'lsa, 2019-yilda ushbu ko'rsatkich 16,1 millionga yetdi, o'sish 130% ni qayd etdi. Ammo COVID-19 pandemiyasi xalqaro turistik bozorda kuzatilgan sayyohlar sonining keskin qisqarishiga olib keldi, natijada 2020-yilda mamlakatga tashrif buyurgan turistlar soni atiga 4 millionni tashkil qildi va 2019-yilga nisbatan 42% kamayishga olib keldi. 2021-yilda sayyohlar soni 2020-yilga qaraganda 62,5 %ga kamayib, 1,5 million kishini tashkil qildi. Bunga sabab, mamlakatdagi pandemiya bilan bog'liq cheklolarning uzoq vaqt saqlanib qolishi edi. 2022-yilda Indoneziyaga tashrif buyurgan sayyohlar soni 5,8 milliondan oshdi, 2023-yilda bu ko'rsatkich 11,68 millionga yetdi, ya'ni undan oldingi yilga nisbatan 98,3% ga o'sdi, biroq pandemiyadan oldingi holatini to'liq tiklay olmadi (1-rasm).




1-rasm. 2010-2019-yillar kesimida Indoneziyaga tashrif buyurgan turistlar soni (million nafar) [16]

Indoneziyaga tashrif buyuruvchi turistlarning asosiy qismi Osiyo-Tinch mintaqasi, xususan, Singapur, Malayziya, Avstraliya, Yaponiya va Xitoydan tashrif buyuradi. Yevropadan kelayotgan turistik oqimning katta qismi Buyuk Britaniya, Fransiya va Germaniyaga to‘g‘ri keladi.

2016-yilda turizm Indoneziya yalpi ichki mahsulotida 4,65%, 2017-yilda 4,76%, 2018-yilda 4,91%, 2019-yilda esa 4,97% ulushga ega bo‘lgan (2-rasm). 2020-yilda koronavirus pandemiyasi sababli turizm inqirozi kuzatildi va turizmning YaIM ga

qo‘shgan hissasi 2,23% ni, 2021-yilda 2,3% ni tashkil qildi. 2023-yil yakuniga ko‘ra esa turizm industriyasining yalpi ichki mahsulotga qo‘shgan hissasi 4,1 % ga yetdi.

Yana bir e‘tiborli jihat – ichki turizm Indoneziya turizm sektorining drayveri hisoblanadi. 2019-yilda mamlakat turistik xarajatlarining 84 % ichki turizm hissasiga to‘g‘ri keldi. Post-pandemiya sharoitida Indoneziya turizm sektori barqaror tiklanish holatini qayd etmoqda. Prognozlariga ko‘ra, 2024-yilda mamlakat pandemiyadan avvalgi holatini to‘liq tiklaydi.



2-rasm. 2016-2021-yillar kesimida turizm sanoatining Indoneziya yalpi ichki mahsulotiga qo‘shgan hissasi (foizda) [18]

Mamlakatda turizm sektorini davlat tomonidan tartibga soluvchi tashkilot – Turizm va ijodiy iqtisodiyot vazirligi (Ministry of Tourism and Creative Economy) hisoblanadi. 2019-yilda Turizm vazirligi hamda Ijodiy iqtisodiyot vazirligi faoliyati qo‘shilishi natijasida o‘z faoliyatini davom ettirmoqda. Ikki vazirlikning birlashtirilishi turizm sektorining ijodiy iqtisodiyot sektoriga birlashishi natijasida turizmni diversifikatsiya qilish va qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. 2020-yilda vazirlik byudjeti 3,6 trillion, 2021-

yilda 3,45 trillion, 2022-yilda esa 3,8 trillion Indoneziya rupiyasini tashkil qildi [13].

Bugungi kunda vazirlik turizm sektorini moslashuvchan va barqaror rivojlanishini maqsad qilgan. 2023-2024-yillarda asosiy e‘tibor qayta tiklanish siyosatiga qaratilmoqda. 2022-yilda Milliy rivojlanishni rejalashtirish vazirligi turizm sektorini rivojlantirishning institutsional asoslarini ishlab chiqdi (3-rasm), ularning asosiy yo‘nalishlari samaradorlik, inklyuzivlik va barqarorlikdan iborat.



3-rasm. Turizm sektorini rivojlantirishning institutsional asoslari [17]

Har bir yo‘nalishda Turizm va ijodiy iqtisodiyot vazirligi amalga oshirishi lozim bo‘lgan bir nechta siyosiy ko‘rsatmalar mavjud:

1. Samaradorlik: turistik ta‘minot kompleksini takomillashtirish, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, turizm bozorini kengaytirish, samarali reklamani qo‘llab-quvvatlash, turistik infratuzilmani rivojlantirish, turistik jozibadorlikni oshirish, turistik samaradorlikmi oshirish, turizm sohasidagi startap loyihalarni ko‘paytirish.

2. Inklyuzivlik: turistik qishloq va provinsiyalardagi sharoitni takomillashtirish, turistik infratuzilmani jonlantirish va milliy mahsulotlardan foydalanishni kengaytirish.

3. Barqarorlik: turizmda Sog‘liqni saqlash protokolini joriy etish va xizmat ko‘rsatish standartini kengaytirish.

Muhokama. Indoneziya 17100 ta oroldan iborat go‘zal tabiiy landshaft sifatida katta turistik salohiyatga ega. Dunyodagi eng ko‘p musulmon aholiga ega mamlakat sifatida ziyorat turizmini doimiy ravishda rivojlantirmoqda.

Mamlakat hududida halol turizmni rivojlantirish nafaqat musulmon, balki boshqa din vakillari bo‘lgan sayyohlarga ham ijobiy ta‘sir qiladi. Chunki, halol turizm barcha uchun ochiq. Turizmning mazkur turi Indoneziyani butun dunyo musulmon sayohatchilari uchun do‘stona manzilga aylantirdi, bunga erishish


uchun esa standartlashtirish talab qilindi. Ziyorat turizmining o'ziga xos xususiyati ziyoratchilar uchun qulay turistik manzillarni qamrab olgan turpaketlar, mehmonxona, restoran va kurortlarning "halol" standartlariga ega bo'lishini talab qiladi.

Indoneziyada turizm quyidagi tamoyillar asosida tashkil etilgan [8]:

- diniy me'yorlar va madaniy qadriyatlar hamda munosabatlarni muvozanatida saqlash;
 - inson huquqlari, madaniy xilmaxillik va mahalliy bilimlarni qo'llab-quvvatlash;
 - xalq farovonligi, adolat, tenglik va mutanosiblik;
-).

- tabiat va atrof-muhitni asrash;
- mahalliy hamjamiyatlarning imkoniyatlarini kengaytirish;
- tarmoqlar, hududlar, markaz va hududiy muxtoriyat doirasida yagona birlik bo'lgan hudud o'rtasida integratsiyani ta'minlash;
- xalqaro turizm xulq-atvor kodeksi va turizm sohasidagi xalqaro shartnomalarga rioya qilish;
- Indoneziya Unitar Respublikasining yaxlitligini mustahkamlash.

Indoneziya milliy turizm maqsadlari iqtisodiy, atrof-muhit va milliy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan (4-rasm



3-rasm. Indoneziya milliy turizm maqsadlari [17]

Halol turizm musulmonlar uchun taqiqlanmagan turli xil xizmat va tovarlarni taklif qiladi. Ammo, musulmon bo'lmagan turistlar ushbu turdan bahramand bo'lishi cheklanmaydi. Indoneziyada turizm uchun joriy qilingan halol standartlari nafaqat musulmon sayohatchilar, balki e'tiqodidan

qat'iy nazar barcha undan foydalanishi mumkinligi ta'kidlangan.

Halol turizmدا turistlar halol ovqatlanish, ibodat joylariga qulay kirish bilan ta'minlanishi, shuningdek, shariat me'yotlariga muvofiq turar joy va xizmatlardan foydalanishlari ta'minlanishi shart.


Crescent Rating Global Muslim Travel Index (GMTI) – 2023 indeksida Indoneziya musulmonlar uchun eng yaxshi yo‘nalish reytingida birinchi o‘rinni egalladi [14]. 2022-yilda ushbu reytingda 2-o‘ringa sazovor deb topilgan edi.

IMTI (Indonesia Muslim Travel Index) ma‘lumotlariga ko‘ra, Indoneziyada halol turizmni rivojlantirish uchun o‘nta ustuvos viloyatlar mavjud: Aceh; G‘arbiy Sumatra; Riau va Riau orollari; G‘arbiy Java; Yogyakarta; Jakarta; Markaziy Java; Sharqiy Java; Janubiy Sulawesi; Sulawesining atrofida joylashgan hududlar.

2022-yilda QRIS – Indoneziya standartlari asosida QR kod orqali to‘lovlar uchun standartlashtirilgan platforma joriy

qilindi. Bu esa mamlakatga tashrif buyuruvchi sayyohlar uchun qo‘shimcha qulayliklar yaratdi. Shuningdek, hukumat tomonidan sayyohlar uchun tranzaksiyalarni osonlashtirish, kichik, o‘rta va yirik korxonalar uchun iqtisodiy samaradorlikni ta‘minlash uchun bir nechta ASEAN mamlakatlari bilan transchegaraviy QRIS xizmatlarini joriy qildi.

Aslida, ko‘pchilik sayyohlar Indoneziyadagi eng jozibador manzil sifatida Bali orolini tanlashadi. Musulmonlar uchun eng mashhur va mos yo‘nalish esa Lombok oroli hisoblanadi. Mazkur orol aholisining aksariyat qismi musulmonlar bo‘lib, halol turizm uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan (4-rasm).



4-rasm. Lombok orolidagi halol turizm asoslari [17]

Lombokning tub aholisi – sasaklar – asosan musulmonlar bo‘lib, masjidlar ko‘pligi sababli orol “ming masjid oroli” nomi bilan tanilgan. Bundan tashqari, erkaklar va ayollar uchun alohida ibodat zallarini aeroport va boshqa muhim turistik obyektlar atrofidan topish mumkin.

Mataramdagi islom markazi mashhur turistik manzil bo‘lib, u yerda G‘arbiy Nusa Tenggara'dagi eng katta masjid joylashgan.

Masjid eshiklari barcha sayyohlar uchun ochiq, 13 qavatli bino balandligiga yetib boradigan minoraga chiqishga ruxsat berilgan. Yana bir mashhur marshrut Lombokning eng qadimiy masjidi Bayan Belek Masjidi va Buyuk Selun nomli asosiy masjididir.

Oroldagi barcha mehmonxonalar halol sertifikatidan o‘tish va bu boradagi umume’tirof etilgan xalqaro standartlarga javob berishga intiladi. Har bir mehmonxona

halol taomlar, qibla belgilari va Qur'on nuxxasi, shuningdek, erkaklar va ayollar uchun alohida xizmatlar ko'rsatadi.

Lombokning deyarli barcha umumiy ovqatlanish korxonalarida Islom qonunlariga muvofiq tayyorlanganligini tasdiqlovchi halol belgisi mavjud, bundan tashqari vegetarian restoranlar ham bor. Mazkur turistik markazda an'anaviy taomlardan tashqari Halol standartiga javob beradigan xalqaro tez ovqatlanish korxonalari ham o'z faoliyatini olib boradi.

Xulosa. Indoneziyadagi halol turizm yo'nalishi milliy iqtisodiyotning alohida sektori sifatida yaxshi tashkil etilgan va soha yaxshi iqtisodiy salohiyatga ega. Halol turizm aholining faqatgina bir bo'lagiga yo'naltirilmagan, ya'ni barchani qamrab oladi. Mamlakatdagi ziyorat turizmining asosi – turizmni boshqarishda standartlarga rioya qilish, xizmat ko'rsatishda barcha turistlar va atrof-muhitga e'tiborli bo'lishdan iborat.

O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish, turistik resurs va salohiyatdan oqilona foydalanish mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyatining rivojlanishi, valyuta tushumining ortishi, eksport tarkibining takomillashuvi va diversifikatsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mazkur sohada Indoneziya tajribasini umumlashtirish ziyorat turizmini quyidagi

yo'nalishlarda rivojlantirish maqsadga muvofiq:

1. Turizm sohasida xalqaro aloqalarni kengaytirish, xususan, geografik joylashuvi yaqin mamlakatlar bilan aloqalarni rivojlantirish, turizm sohasiga xorijiy investitsiyalar jalb qilish bo'yicha keng chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish.

2. Yangi mehmonxona, kemping, motel, hostellar qurish va mavjudlarini ta'mirlash yoki rekonstruksiya qilish hamda zamonaviylashtirishda "Halol" standartlarni joriy qilish, xalqaro talablarga javob beradigan moddiy-texnik baza va zamonaviy ziyorat turizmi infratuzilmasini barpo etish va ulardan samarali foydalanish.

3. Aeroport, temiryo'l vokzallari, avtobus stansiyalarining barchasida namozxona va dam olish xonalarining mavjudligini ta'minlash.

4. Turistlarni qabul qilish markazlarida zamonaviy axborot kommunikatsiya tizimlarini barpo etish.

5. Turizm sohasini axborot bilan ta'minlash, turistik biznesda eng yangi texnologiyalardan foydalanish asosida mamlakat turistik salohiyati haqidagi axborotni internet orqali xalqaro turistik bozorida olib chiqish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdurakhmanova G.K. et al. Tourism 4.0: opportunities for applying Industry 4.0 technologies in Tourism. // Proceedings of the 6th International Conference on Future Networks & Distributed Systems. 2022. C. 33-38.

2. Александрова А. Ю. Халяльный туризм: сущность, факторы и современные тенденции развития в мире. Приоритетные направления и проблемы развития внутреннего и международного туризма в России (2018): 3-9.

3. Asadov N. Musulmon bo'lmagan mamlakatlarda halol turizm standartlarini joriy etish tajribasi. Talqin va tadqiqotlar 1.1 (2023).

4. Астанакулов О., Сохибова, М. (2023). Халқаро туристик хизматларнинг ривожланиши динамикаси ва тенденцияларининг таҳлили. *iqtisodiyot va ta'lim*, 24(5), 346–353. https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss5/%x



5. Астанакулов О., Гойипназаров С. “Туризм 4.0”：“Саноат 4.0” технологияларини туризм соҳасида қўллаш имкониятлари: https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss3/a51. // Iqtisodiyot va ta’lim. 2022. T. 23. №. 3. С. 330-337.
6. Barotov U. Halol turizmدا yetakchi online turistik agentliklari faoliyati tahlili va ularning yurtimizdagi istiqboli. Центр научных публикаций (buxdu.uz) 46.46 (2024).
7. Battour M., Mohd N.I. Halal tourism: Concepts, practices, challenges and future. Tourism management perspectives 19 (2016): 150-154.
8. Jaelani A. Halal tourism industry in Indonesia: Potential and prospects. International Review of management and Marketing 7.3 (2017): 25-34.
9. Junaidi J. Halal-friendly tourism and factors influencing halal tourism. Management Science Letters 10.8 (2020): 1755-1762.
10. Samori Z., Nor Zafir Md S., Mohammad Mahyuddin Kh. Current trends on Halal tourism: Cases on selected Asian countries. Tourism Management Perspectives 19 (2016): 131-136.
11. Turdiyeva U. Halol mahsulot va xizmatlarni baholashning turizm sanoatiga ta’siri. Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения 1.23 (2022): 52-55.
12. Уманская М.В., Давлатова З.И. Халяльный туризм в современном мире. (2021): 106-113.
13. https://datacommons.org/place/country/IDN?utm_medium=explore&mprop=count&pop=Person&hl=en
14. <https://en.tempro.co/read/1734117/indonesia-tops-halal-tourism-in-global-muslim-travel-index-2023>
15. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413#-6605156>
16. <https://www.ceicdata.com/en/indicator/indonesia/visitor-arrivals>
17. <https://www.oecd-ilibrary.org/sites/3d55e868-en/index.html?itemId=/content/component/3d55e868-en>
18. <https://www.statista.com/statistics/1150613/indonesia-tourism-gdp-direct-contribution-share/>